

## **AVTOREFERATLARNI RASMIYLASHTIRISH QOIDALARI**

Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 9 sentyabrdagi 421-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risida»gi Nizom hamda O'zR OAK Rayosatining 1996 yil 25 yanvardagi 34/2 qarori bilan tasdiqlangan va O'zR Adliya vazirligida 1996 yil 10 iyulda 261-raqam bilan ro'yxatga olingan «Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risida Nizom» asosida ishlab chiqilgan.

### **I. Dissertatsiya va avtoreferatlar uchun qo'yiladigan mezonlar**

1. Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya muallif o'tkazgan tadqiqotlar va u yaratgan ishlanmalar asosida muhim xalq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik ilmiy muammo hal qilingan yoki tegishli fan sohasining istiqbolli yo'nalishini rivojlantirishda ulkan yutuq deb baholash mumkin bo'lgan nazariy qoidalar majmui ishlab chiqilgan yohud joriy etilishi fan va texnikani rivojlantirishga katta hissa qo'shadigan ilmiy asoslangan texnikaviy, iqtisodiy yoki texnologik yechimlar o'z ifodasini topgan ilmiy asar bo'lishi kerak.

2. Fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya fanning tegishli sohasi uchun katta ahamiyatga molik masala yangicha hal qilingan yoki muallifning muhim amaliy masalalarni hal etishni ta'minlovchi ilmiy jihatdan asoslangan texnikaviy, iqtisodiy yoki texnologik tavsiyalari o'z ifodasini topgan ilmiy asar bo'lishi kerak.

3. Dissertatsiya shaxsan yozilgan bo'lishi, muallif oshkora himoya uchun jamoat muhokamasiga taqdim etayotgan yangi ilmiy natijalar va holatlarning majmuini o'z ichiga olishi, mohiyat jihatidan ichki birlikka ega bo'lishi va muallifning shaxsan fanga ko'shgan hissasini aks ettirishi lozim.

Muallif erishgan yangi yechimlar jiddiy asoslangan va boshqa ma'lum bo'lgan yechimlarga nisbatan solishtirilgan holda tanqidiy baholangan bo'lishi kerak.

4. Amaliy ahamiyatga molik dissertatsiyada aniq muammoning yechimi va muallif erishgan ilmiy natijalardan amaliyotda foydalanilganligi to'g'risida ma'lumotlar, nazariy ahamiyatga molik dissertatsiyada esa ilmiy xulosalardan foydalanishga doir tavsiyalar berilishi lozim.

5. Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan ilmiy ma'ruza shaklidagi dissertatsiya talabgor tomonidan avval chop etilgan va ushbu fan sohasining mutaxassislariga keng ma'lum bo'lgan, fan va amaliyot uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy va tajribaviy-konstruktorlik ishlarining majmui asosida tayyorlangan, muallif o'tkazgan tadqiqot va ishlanmalar natijalarining qisqacha umumlashtirilgan bayonidan iborat bo'ladi. Ilmiy ishning ahamiyati hamda ilmiy ma'ruza shaklidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi xulosani talabgorning asosiy tadqiqotlari o'tkazilgan va ishlanmalari bajarilgan tashkilot beradi.

Ilmiy ma'ruza shaklidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishga ruxsatni ixtisoslashgan kengash murojaatnomasi asosida Oliy attestatsiya komissiyasi (bundan keyin - OAK) beradi.

Ilmiy ma'ruza shaklidagi dissertatsiya belgilangan shakldagi (7- ilovaga qarang) muqova (oldi va orqa tomoni) va matn qismini o'z ichiga oladi.

6. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari ilmiy nashrlarda chop etilishi lozim.

Doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalari yetakchi, taqriz qilinadigan ilmiy jurnallar va ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi lozim.

Dissertantning ilmiy ishlarini umumiy soni 20tadan kam bo'lmasligi kerak. Talabgorning ilmiy ishlari qatorida nomzodlik dissertatsiyasi himoyasidan so'ng chop etilgan, OAK Rayosati tasdiqlagan jurnallar ro'yxatidagi davriy ilmiy jurnallarda kamida o'n ta maqolasi bo'lishi kerak. Ijtimoiy-gumanitar va iqtisodiyot sohalari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi natijalari yuzasidan monografiya nashr etilgan bo'lishi, boshqa

fanlar sohalari bo'yicha esa, shuningdek, pedagogika, psixologiya, falsafa va iqtisod fanlari bo'yicha ham ushbu fan sohasi yuqori darajada rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy jurnallarida kamida ikkita maqola nashr etilgan bo'lishi kerak.

Nomzodlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalari bosma ilmiy nashrlarda chop etilishi lozim. Dissertantning ilmiy ishlarining umumiy soni beshtadan kam bo'lmashligi kerak. Talabgorning ishlari qatorida OAK Rayosati tasdiqlagan jurnallar ro'yxatidagi davriy ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida ikkita maqolasi bo'lishi kerak.

Talabgorning nashr etgan ilmiy ishlari dissertatsiyaning himoya qilinayotgan asosiy natijalarini aks ettirishi kerak.

Nashrga topshirilgan bo'lsa-da, lekin hali chop etilmagan ishlar dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlarida keltirilishi mumkin emas.

7. OAK Veb-sahifasida dissertatsiyaning himoyasi to'g'risida e'lon berilganidan so'ng, ixtisoslashgan kengashning ruxsati bilan dissertatsiyaning qo'lyozma huquqidagi avtoreferati nashr qilinadi. Ilmiy ma'ruza shaklidagi doktorlik dissertatsiyasi avtoreferat sifatida tarqatiladi.

8. Avtoreferatda dissertatsiyaning asosiy g'oya va xulosalari bayon etilishi, o'tkazilgan tadqiqotlardagi muallifning qo'shgan hissasi, tadqiqot natijalarining yangilik darajasi va amaliy ahamiyati ko'rsatilishi shart.

Doktorlik dissertatsiyasining titul varag'i va avtoreferat muqovasining orqa tomonida faqat bitta ilmiy maslahatchi ko'rsatiladi.

Nomzodlik dissertatsiyasining titul varag'i va avtoreferat muqovasining orqa tomonida faqat bitta ilmiy rahbar ko'rsatiladi.

Zarur hollarda OAK ruxsati bilan dissertatsiyaning titul varag'i va avtoreferat muqovasining orqa tomonida ikkinchi ilmiy rahbar yoki ilmiy maslahatchini ko'rsatish mumkin. Ixtisosliklar tutashligida bajarilgan dissertatsiyalar bundan mustasno.

9. Dissertatsiya va avtoreferat o'zbek, rus yoki ingliz tillaridan birida yozilishi mumkin. Avtoreferat oxirida o'zbek, rus va ingliz tillarida qisqacha rezyume bo'lishi kerak.

Rezyumening hajmi doktorlik dissertatsiyasi uchun bir betdan va nomzodlik dissertatsiyasi uchun yarim betdan oshmasligi lozim.

10. Dissertatsiya avtoreferati bosmaxonada yoki ko'paytirish apparatlarida ixtisoslashgan kengash tomonidan belgilangan miqdordagi nusxada bosiladi.

### **III. Dissertatsiya avtoreferatini rasmiylashtirish qoidalari**

30. Dissertatsiya bo'yicha qo'lyozma huquqidagi avtoreferat chop etilishi va ko'paytirilishi kerak. Avtoreferat WORDning 14 shriftida bir intervalda yoziladi.

Doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha dissertatsiyaning qo'lyozma huquqidagi avtoreferati hajmi 32 betdan, nomzodlik dissertatsiyasi bo'yicha esa 16 betdan oshmasligi kerak (A4 format). Ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasidagi dissertatsiya avtoreferatining hajmi ko'pi bilan 30 foizga oshirilishi mumkin.

Dissertatsiya avtoreferati belgilangan shakldagi (6- ilovaga qarang) muqova (oldi va orqa tomoni) hamda matn qismidan iborat. Avtoreferat muqovasi, illyustratsiyalar, avtoreferat oxirida beriladigan e'lon qilingan ishlar ro'yxati va rezyumelar umumiy hajmga kirmaydi. Avtoreferatda ilovalar bo'lmaydi.

Avtoreferatning barcha betlari muqovadan oxirgi betgacha tartib bilan raqamlanadi. Birinchi va ikkinchi betlar muqova va muqova orqa tomoni hisoblanib, ularga raqam qo'yilmaydi, keyingi betga "3" raqami qo'yiladi va hokazo. Tartib raqami betning quyi tomonining o'rtasiga qo'yiladi.

### **31. Avtoreferat matni quyidagi bo'limlarga bo'linadi:**

1. DISSERTATSIYANING UMUMIY TAVSIFI. Ushbu bo'lim, odatda, quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

- mavzuning dolzarbligi;
- muammoning o'rganilganlik darajasi;
- dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi;
- tadqiqot maqsadi;
- tadqiqot vazifalari;
- tadqiqot ob'ekti va predmeti;
- tadqiqot metodlari;
- himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar;
- ilmiy yangiligi;
- tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati;
- natijalarning joriy qilinishi;
- ishning sinovdan o'tishi (aprobatsiyasi);
- natijalarning e'lon qilinganligi;
- dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi..

2. DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI. Ushbu bo'limda bajarilgan tadqiqotning (dissertatsiyaning bo'limlari bo'yicha) qisqacha tavsifi bayon qilinishi kerak.

Zarur hollarda, avtoreferatda yakuniy matematik ifodalar, muhim grafiklar, diagrammalar, jadvallar keltiriladi va ular butun avtoreferat bo'yicha izchil ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi.

3. XULOSA. Ushbu bo'lim asosiy xulosalarni hamda dissertatsiya natijalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalarni qamrab olishi kerak.

4. E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI. Bunda muallifning faqat dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy nashrlarda e'lon qilingan ishlarining ro'yxati beriladi. Ro'yxat standart talablariga mos ravishda tuziladi (3- ilovaga qarang).

E'lon qilingan ishlar ro'yxati nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferatida qat'iy standartga mos ravishda xronologik tartibda keltiriladi.

Dissertantning chop etilgan ilmiy ishlari ro'yxati doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatida uch bo'limdan iborat holda keltiriladi:

- birinchi bo'limda monografiyalar va ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar keltiriyaadi;
- ikkinchi bo'limda ixtirolar to'g'risidagi patentlar va mualliflik guvoxonmalarining ro'yxati keltiriladi;
- uchinchi bo'limda ilmiy to'plamlarda chop etilgan maqolalar, tezislar, preprintlar, deponent qilingan ilmiy ishlar (ularning referati ilmiy jurnallarda nashr etilgan bo'lishi kerak), ilmiy jurnallarda chop etilgan referat, axborot va annotapiyalar ro'yxati beriladi.

Avtoreferatda barcha ilmiy ishlar dissertatsiya mavzusiga qat'iy mos kelishi va nashr etilgan vaqtiga qarab tartib bo'yicha keltirilgan bo'lishi kerak. Avtoreferatda keltirilgan uchchala bo'limdagi ilmiy ishlar uzluksiz raqamlanadi.

Dissertatsiya va avtoreferatda ko'rsatilgan ilmiy ishlarning nashriga oid ma'lumot mavjud talablarga batamom mos ravishda keltirilishi, ya'ni barcha mualliflar to'la yozilishi xamda maqolalar chop etilgan to'plamlar va jurnallar betlari aniq ko'rsatilishi zarur.

5. REZYUME quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tayanch (eng muxim) so'zlar;
- tadqiqot ob'ektlari;
- ishning maqsadi;
- tadqiqot metodlari;

- olingan natijalar va ularning yangiligi;
- amaliy ahamiyati;
- tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi;
- qo'llanish (foydalanish) sohasi.

Rezyume o'zbek, rus va ingliz tillarida yozilishi kerak. Rezyume namunalari 7- ilovada keltirilgan.

32. Avtoreferat asosiy bo'limlarining nomlari matnga simmetrik holda katta harflar bilan (raqam qo'yilmasligi kerak) yoziladi, birinchi bo'lim qismlarining sarlavhalari, odatda, xat boshidan to'q kichik harflar bilan yoki harflar orasi ochiq holda raqamlanmay yoziladi.

Avtoreferatning barcha nusxalarida oxirgi rezyumedan so'ng dissertantning imzosi bo'lishi shart.

Dissertatsiya himoyaga qabul qilinganidan so'ng avtoreferatga o'zgartirishlar kiritish mumkin emas.